



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 28-dekabr

763-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko‘rsatish hamda ushbu xizmatlardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 7-noyabrda 740-son qarori ijrosi haqida”gi 621-6-0-Q/24-sonli qarori to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko‘rsatish hamda ushbu xizmatlardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 7-noyabrda 740-son qarori va Namangan viloyat hokimining 2024-yil 26-dekabr da 621-6-0-Q/24-son qarorini tumanda ijrosini ta‘minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6 va 21¹-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 26-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko‘rsatish hamda ushbu xizmatlardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning oldini olishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 7-noyabrda 740-son qarori ijrosi to‘g‘risida”gi 621-6-0-Q/24-sonli qarori ijro uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining mazkur qarori bilan:

Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligi hamda “O‘zsuvta‘minot” aksiyadorlik jamiyatining:

ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko‘rsatishni tizimli tashkil etish hamda ushbu xizmatlardan oqilona foydalanishda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining “Ogoh fuqaro”;

ichimlik suv ta‘minoti tashkilotlari xodimlari tomonidan ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlaridan foydalanish borasidagi huquqbuzarlik haqidagi xabarlarini yetkazishda Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi vazirligining “Qurilishda davlat nazorati” axborot tizimlaridan foydalanish to‘g‘risidagi takliflariga rozilik berilganligi;

quyidagilarni nazarda tutuvchi Ichimlik suv ta‘minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko‘rsatish hamda ushbu xizmatlardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarlik to‘g‘risidagi fotosuratlar, videoyozuvlar va boshqa hujjatlarni qabul qilish, ko‘rib chiqish hamda ularni taqdim etgan shaxslarni rag‘batlantirish tartibi haqidagi nizom ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi hamda 2025 yil yanvardan boshlab amalga kiritilishi:

huquqbuzarliklarni videotexnika vositalari orqali qayd etish tizimi;

videotexnika vositalari orqali qayd etilgan huquqbuzarliklarni ko‘rib chiqish tartibi;

huquqbuzarliklar qayd etilgan foto va video materiallarni yuborgan shaxslarni rag‘batlantirish tizimi;

belgilanishicha:

a) huquqbuzarlik qayd etilganligi bo'yicha xabar bergan shaxs to'g'risidagi ma'lumotlar oshkor etilishiga yo'l qo'yilmasligi;

b) videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan ichimlik suv ta'minoti va oqova suv chiqarish xizmatlarini ko'rsatish hamda ushbu xizmatlardan foydalanish qoidalarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarlik Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksda belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi;

bunda huquqbuzarlik to'g'risidagi foto va videotasvirlar inspeksiya xodimlari tomonidan qayd etilgan foto va video materiallarga tenglashtirilishi;

v) videokuzatuv va tasvirga olish texnika vositalari hamda mobil qurilmalar orqali qayd etilgan huquqbuzarlik bo'yicha huquqbuzardan undiriladigan jarimalar quyidagilarga yo'naltirilishi:

40 foizi - O'zbekiston Respublikasining respublika budjetiga;

60 foizi - Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi faoliyatini qo'llab-quvvatlash jamg'armasi (keyingi o'rinlarda - Jamg'arma)ga;

belgilab qo'yilishicha, huquqbuzarlik aks ettirilgan foto va video materiallarni taqdim etgan shaxslar va/yoki huquqbuzarlik aks ettirilgan foto va video materiallar hamda "E-ma'muriy ish" axborot tizimiga zarur ma'lumotlar to'plamini taqdim etgan ichimlik suv ta'minoti tashkilotlari xodimlari ularning taqdim etilishi natijasida rasmiylashtirilgan ma'muriy jarimadan Jamg'armaga undirilgan summaning o'ttiz foizi miqdoridagi pul mukofoti bilan rag'batlantirilishi e'tiborga olinsin.

3. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limi (Hudoyberdiyev) "Namangan suv ta'minoti" MChJ tuman filiali (Tolipova) bilan birgalikda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 7-noyabrdagi 740-son qarorining mazmun-mohiyati ommaviy axborot vositalarida keng yoritilishini ta'minlasin.

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining tegishli o'rinbosari zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov